



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIVAVIY HISOBOT TUZISHNING TASHKILIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Eshonqulov Azamat Abdiraximovich
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv
va texnologiyalar Universiteti
ORCID: 0009-0005-0374-8350
azamatabdiraximovich543@gmail.com

Annotatsiya. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun tashkiliy jihatlarini alohida bosqichlarini aniqlash hamda hisob siyosatiga tegishli bandlarini shakllantirish ochib berilgan. Tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish orqali hisobot tuzish jarayonini yanada samarali va aniq amalga oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, mazkur jarayonda qo'llanilishi mumkin bo'lgan innovatsion yondashuvlar va ichki nazorat tizimlarini kuchaytirish taklif etiladi. Ish natijalari aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy shaffofligini oshirishga va investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, aksiyadorlik jamiyatlari, tashkil etuvchi mexanizmlar, moliyaviy hisobot, innovatsion yondashuvlar, iqtisodiy samaradorlik, ichki nazorat, investitsiyaviy jozibadorlik, zamonaviy texnologiyalar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МЕХАНИЗМОВ КОНСОЛИДИРОВАННОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ

Эшанкулов Азамат Абдирахимович
Ташкентский университет международного
финансового менеджмента и технологий

Аннотация. Раскрыто определение отдельных этапов организационных аспектов подготовки консолидированной финансовой отчетности и формирование вопросов, связанных с учетной политикой. Рассмотрены пути повышения эффективности и точности процесса отчетности за счет совершенствования организационных механизмов. Также предлагается усилить системы внутреннего контроля и инновационные подходы, которые могут быть использованы в этом процессе. Результаты работы служат повышению финансовой прозрачности акционерных обществ и усилению их инвестиционной привлекательности.

Ключевые слова: консолидированная финансовая отчетность, акционерные общества, организационные механизмы, финансовая отчетность, инновационные подходы, экономическая эффективность, внутренний контроль, инвестиционная привлекательность, современные технологии.

IMPROVEMENT OF ORGANIZATIONAL MECHANISMS OF CONSOLIDATED FINANCIAL REPORTING IN JOINT STOCK COMPANIES

Eshankulov Azamat Abdirahimovich
Tashkent University of International
Financial Management and Technologies

Abstract. *Determining the separate stages of the organizational aspects for the preparation of consolidated financial statements and the formation of items related to the accounting policy are disclosed. Ways to make the reporting process more efficient and accurate by improving organizational mechanisms are considered. Also, it is proposed to strengthen the internal control systems and innovative approaches that can be used in this process. The results of the work serve to increase the financial transparency of joint-stock companies and strengthen their investment attractiveness.*

Keywords: *consolidated financial reporting, joint-stock companies, organizational mechanisms, financial reporting, innovative approaches, economic efficiency, internal control, investment attractiveness, modern technologies.*

Kirish.

Aksiyadorlik jamiyatlarining iqtisodiy rivojlanishida moliyaviy hisobotlar muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy hisobotlar orqali korxonaning umumiy moliyaviy ahvoli va faoliyat natijalari to'g'risida to'liq va aniq ma'lumot olish mumkin. Xususan, yirik kompaniyalar o'zining barcha sho'ba korxonalarini faoliyatini birlashtirgan holda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni taqdim etishi lozim. Bunday hisobotlar aksiyadorlar, investorlar, davlat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar uchun kompaniyaning umumiy holatini aks ettiradi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarning ahamiyati xalqaro miqyosda ortib bormoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq ravishda konsolidatsiyalashgan hisobot tuzish investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun kompaniyaning global bozorlardagi faoliyatini tushunish imkonini beradi. Ayniqsa, transmilliy kompaniyalar va yirik xalqaro aksiyadorlik jamiyatlari uchun bu hisobotlarning to'g'ri tayyorlanishi va taqdim etilishi strategik ahamiyatga ega. Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzish jarayoni bir qator tashkil etuvchi mexanizmlarni talab qiladi. Ushbu jarayon turli darajadagi subyektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, malakali moliyaviy mutaxassislar ishtiroki va hisobotni to'g'ri tashkil qilish uchun zaruriy texnologik imkoniyatlarni yaratishni talab qiladi. Konsolidatsiya jarayonidagi har bir bosqichni aniq belgilash va amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda konsolidatsiyalashgan hisobotlarni tayyorlashda zamonaviy yondashuvlar va texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq tajribalar kengaymoqda. Raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan moliyaviy dasturlar yordamida hisobot tuzish jarayonining samaradorligini oshirish, inson omilini kamaytirish va natijada aniqroq hisobotlar olish imkoniyati mavjud. Ushbu yondashuvlar nafaqat hisobot sifatini yaxshilaydi, balki vaqt va resurslar sarfini ham kamaytiradi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzishda ichki nazorat mexanizmlarining o'rnini katta. Samarali ichki nazorat tizimlari kompaniyaning moliyaviy ma'lumotlarini to'plab, tekshirib, ularni aniq va ishonchli holatda taqdim etilishini ta'minlaydi. Ichki nazoratning kuchaytirilishi kompaniyaning moliyaviy shaffofligini oshirishga va xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish orqali nafaqat moliyaviy holatni yaxshilash, balki kompaniyaning xalqaro maydondagi imidjini oshirish mumkin. Hisobotlarning sifatli bo'lishi nafaqat ichki boshqaruv uchun, balki kompaniyaga tashqi investorlarni jalb qilishda ham muhimdir. Shu sababli, mazkur ilmiy ish aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzish jarayonini takomillashtirish yo'llarini o'rganishga qaratilgan.

Bunda tashkil etuvchi mexanizmlar, zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar yordamida hisobotlarni yanada ishonchli va samarali qilish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar tuzish jarayoni murakkab struktura va turli sho'ba korxonalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olishni talab qiladi. Bunda har bir sho'ba korxonaning individual moliyaviy hisobotlarini to'g'ri tayyorlash va ularni birlashtirish jarayonini samarali tashkil etish juda muhim. Sho'ba korxonalarining o'zaro faoliyatini birlashtirishda moliyaviy ko'rsatkichlarni aniq hisoblash va qayta ishlash qoidalariga rioya qilinishi kerak. Bu jarayonlar aniq mexanizmlar asosida tashkil etilmasa, konsolidatsiya qilingan moliyaviy hisobotlar noto'g'ri yoki noaniq bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga moslashtirish ularga global miqyosda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tuzilgan hisobotlar turli davlatlarda faoliyat yurituvchi kompaniyalarning moliyaviy ma'lumotlarini bir xilda tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Bu esa xalqaro investorlar uchun kompaniya faoliyatining ochiqligini va ishonchligini ta'minlaydi. Shu sababli, aksiyadorlik jamiyatlari uchun Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashgan konsolidatsiyalashgan hisobotlarning ahamiyati katta. Konsolidatsiyalashgan hisobotlarni tuzishda axborot texnologiyalari va avtomatlashtirilgan dasturlardan foydalanish, hisob-kitoblar jarayonini avtomatlashtirish va inson xatolarini kamaytirish bilan bog'liq innovatsion yondashuvlar katta o'rin tutadi. Shu bilan birga, tashkilotlarda konsolidatsiyalashgan hisobotlar tuzish bo'yicha malakali mutaxassislarining mavjudligi ham jarayonning samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar nafaqat kompaniyaning moliyaviy natijalarini umumlashtirish, balki moliyaviy faoliyatni tahlil qilish, strategik qarorlar qabul qilishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Sho'ba korxonalarining moliyaviy holatini yagona hisobotga birlashtirish orqali kompaniyaning umumiy ko'rsatkichlari aniq va tushunarli bo'ladi. Shu bilan birga, bu jarayonda to'g'ri axborotlarni yig'ish va ularni konsolidatsiyalash talablari bajarilmasa, bu investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarda noto'g'ri tasavvurlar paydo qilishi mumkin. Shuning uchun konsolidatsiyalashgan hisobotni tayyorlash jarayonida tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlari o'ta muhimdir.

Hozirgi vaqtda aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari kompaniyaning turli mamlakatlardagi moliyaviy faoliyatini yagona formatda aks ettirish imkonini beradi. Bu esa transmilliy kompaniyalar uchun xalqaro moliya bozorlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish imkoniyatini oshiradi. Konsolidatsiyalashgan hisobotning sifatini oshirish uchun Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga mos ravishda tashkil etuvchi mexanizmlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish talab qilinadi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni takomillashtirishda eng muhim qadamlaridan biri bu moliyaviy ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tizimlar orqali yig'ish va ularni qayta ishlashdir. Zamonaviy dasturlar va texnologiyalar yordamida bu jarayon tezlashtiriladi va inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklar minimal darajaga tushiriladi. Bunday texnologiyalar hisobotlarni tayyorlash va ularni real vaqt rejimida yangilab borishda katta rol o'ynaydi. Raqamli yechimlar qo'llanilishi natijasida kompaniya o'z moliyaviy ahvoli haqida doimiy ravishda to'liq tasavvurga ega bo'ladi. Natijada, aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzishning samarali mexanizmlarini joriy etish moliyaviy ko'rsatkichlarning ishonchligini oshirish va kompaniyaning investitsiyaviy jozibadorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzish bo'yicha bir qator xorijlik va respublikamiz olimlar ham turli fikrlar bildirgan. Bu bo'yicha Christopher Nobesning moliyaviy hisobning xalqaro standartlari bo'yicha olib borgan tadqiqotlari aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarning ahamiyatini keng yoritadi. U xalqaro

standartlarning moliyaviy shaffoflikni ta'minlash va global darajadagi investitsion qarorlarni osonlashtirishdagi rolini ta'kidlaydi. Nobesning (2006) fikriga ko'ra, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha tayyorlangan konsolidatsiyalashgan hisobotlar kompaniyalararo qiyoslash imkoniyatini oshiradi va bu investorlar uchun katta afzallikdir deb fikr yuritgan bo'lsa, Shyam Sunder moliyaviy hisobotning xalqaro tashkil etilishi va uni milliy hisob standartlariga nisbatan tadbiiq etilish jarayonlarini chuqur tahlil qiladi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, MHXS standartlari global biznes hamkorlikni kuchaytiradi va korporatsiyalarni xalqaro miqyosda moliyaviy natijalarni taqqoslash imkoniyatlari bilan ta'minlaydi. Sunder (2016) shuningdek, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda ma'lumotlarning aniq va to'liq bo'lishi kompaniyaning bozorda muvaffaqiyat qozonishida muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etadi deb fikr yuritgan. Yana bir xorijlik olimlar Alexander va Nobes (2013) o'tkazgan tadqiqotida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarning global korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun qanchalik zarur ekanligini ko'rsatadi. Ularning fikriga ko'ra, konsolidatsiyalashgan hisobotlar korxonalar va ularning sho'ba tashkilotlari o'rtasidagi moliyaviy aloqalarni aniq aks ettirishi zarur, bu esa xalqaro miqyosda moliyaviy axborotni to'g'ri talqin qilish uchun muhimdir. Barthing (2008) tadqiqotlari moliyaviy hisobotlarda shaffoflik va ishonchlilikni oshirishda MHXSning muhim o'rnini ochib beradi. U konsolidatsiyalashgan hisobotlar tayyorlashda MHXS qoidalarining to'g'ri tatbiq etilishi orqali korxonalarining moliyaviy natijalari haqida aniqroq va batafsil axborot taqdim etish imkonini beradi deb hisoblaydi. Barthing (2008) fikricha, xalqaro standartlarga mos ravishda ishlab chiqilgan hisobotlar korporativ boshqaruvni yaxshilaydi va moliyaviy risklarni kamaytiradi. Respublikamiz olimlaridan Karimovning (2015) moliyaviy hisobotlar va ularning xalqaro standartlarga moslashtirilishi bo'yicha tadqiqotlari aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan hisobotlarning dolzarbligini yoritadi. U o'z tadqiqotlarida konsolidatsiyalashgan hisobotlar nafaqat xalqaro miqyosda, balki mamlakat ichidagi biznes faoliyatini ham yaxshilashga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, moliyaviy axborotlarning to'g'ri va aniq bo'lishi investorlar uchun hal qiluvchi omildir (Karimov, 2015). Yana bir tadqiqotchi olim Raximovning (2018) fikricha, aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar tayyorlashda asosiy e'tibor xalqaro standartlarga moslashishdir. U, ayniqsa, ichki moliyaviy nazorat va xalqaro talablarga mos ravishda axborotning oshkoraligini ta'minlashni dolzarb masala sifatida ko'rsatadi. Raximov (2018) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qabul qilish orqali mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayishini ta'kidlaydi. Qodirovning (2020) izlanishlari aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlarini tayyorlash va ularni xalqaro standartlarga moslashtirishda mavjud qiyinchiliklarni o'rganishga qaratilgan. Uning fikricha, mamlakatimizda bu jarayonni takomillashtirish uchun moliyaviy boshqaruv tizimiga raqamli texnologiyalarni kengroq joriy etish zarur. Shuningdek, u konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarning sifati va ishonchliligini oshirishda zamonaviy yondashuvlar muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etadi. Nematov (2022) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari respublikamizda joriy etilishi bilan bog'liq amaliyotlarni o'rganib, aksiyadorlik jamiyatlarining konsolidatsiyalashgan hisobotlarini tayyorlashdagi qadamlarini tahlil qiladi. tadqiqotchi xalqaro standartlarga o'tish jarayoni korxonalar uchun bir qator yangi imkoniyatlar yaratadi, shu bilan birga moliyaviy axborotni tayyorlash va taqdim etish jarayonini yanada shaffof qiladi deb fikr yuritadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda sifat va miqdoriy usullar qo'llaniladi. Sifat usuli orqali aksiyadorlik jamiyatlarining hisobot tuzish jarayonidagi tajribalarini va muammolarini tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni to'plashda ishlatiladi, bu orqali hisobotlarni tayyorlash jarayonidagi tendentsiyalar va o'zgarishlar aniqlanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi konsolidatsiyalashgan

moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda samaradorlikni oshirish uchun zarur bo'lgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar aksiyadorlik jamiyatlari uchun muhim moliyaviy axborot manbai hisoblanadi. Ular kompaniyaning umumiy moliyaviy holatini va faoliyatini to'g'ri aks ettirishga yordam beradi. Biroq, hisob-kitob jarayoni, uning natijalari va ularning ta'siri haqida to'g'ri tushuncha hosil qilish uchun to'g'ri ma'lumotlar tahlil qilinishi zarur. Tahlil jarayonida moliyaviy ko'rsatkichlar, shuningdek, hisob-kitoblar va ularning asosiy qismlari ham o'rganiladi. Buning natijasida kompaniyalar o'z faoliyatini yanada samarali tashkil etish va moliyaviy holatini yaxshilash bo'yicha maqsadli qarorlar qabul qilishlari mumkin. Tahlilning muhim bosqichlaridan biri — konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarning asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish va solishtirishdir.

1-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2022 yilda	2023 yilda	O'zgarish
Sof foyda	1 200 000	1 500 000	+25%
Aktivlar umumiy	10 000 000	12 000 000	+20%
Passivlar umumiy	8 000 000	9 500 000	+18.75%
Aksiyadorlarga to'langan dividend	600 000	750 000	+25%

Manba: ma'lumotlarga tayanib muallif tomonidan tuzilgan.

Ushbu jadvalda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holatidagi ijobiy o'zgarishlar ko'rsatilgan. Sof foyda va aktivlar umumiyining o'sishi, kompaniyaning rentabelligi va moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Davr mobaynida aksiyadorlarga to'langan dividendning ham o'sishi, investorlar uchun jozibadorlikni yanada kuchaytiradi.

Quyidagi jadvalda esa konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonidagi muammolar va ularning yechimi ko'rsatilgan.

2-jadval

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimi


Nº	Muammo	Tavsif	Yecha olish usuli	Muammo
1.	Axborotning aniqligi	Moliyaviy ma'lumotlarning to'g'ri yig'ilmasligi	Ichki nazoratni kuchaytirish	Axborotning aniqligi
2.	Hisobotning shaffofligi	Hisobotlarning ko'rinishi va taqdim etilishi	Yana bir tekshirish bosqichini qo'shish	Hisobotning shaffofligi
3.	Muammoli ma'lumotlar	O'zaro ta'sirda muammoli va noto'g'ri ma'lumotlar	Avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish	Muammoli ma'lumotlar
4.	Moliyaviy tahlilning yetishmasligi	Moliyaviy tahlil jarayonining yetarli emasligi	Moliyaviy tahlil bo'yicha malaka oshirish	Moliyaviy tahlilning yetishmasligi

Manba: ma'lumotlarga tayanib muallif tomonidan tuzilgan.

Ushbu jadvalda ko'rsatilgan muammolar konsolidatsiyalashgan hisobotlarni tayyorlash jarayonini murakkablashtirishi mumkin, shuning uchun ularni hal etish zarur. Yuqorida

keltirilgan muammolarni yechish orqali kompaniyalar o'z moliyaviy hisobotlarining ishonchligini oshirishga erishishlari mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash mexanizmi, jamiyatning moliyaviy holatini aniqlash va investorlar uchun zarur bo'lgan axborotlarni taqdim etish jarayonini o'z ichiga oladi. Ushbu mexanizm, birinchi navbatda, kompaniyaning sho'ba korxonalari o'rtasida moliyaviy ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish jarayonini talab etadi. Konsolidatsiyalashgan hisobotlarni tayyorlashda ma'lumotlar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga mos ravishda tayyorlanishi kerak. Keyinchalik, to'plangan ma'lumotlar yagona formatda konsolidatsiyalashadi va bu jarayonda ko'plab moliyaviy ko'rsatkichlar hisobga olinadi, masalan, sof foyda, aktivlar va passivlar. Hisobotlarni tayyorlash jarayoni davomida to'g'ri nazorat va validatsiya mexanizmlari joriy etilishi muhimdir, chunki bu investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun moliyaviy axborotlarning ishonchligini oshiradi.



Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonida guruh tarkibini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Guruh tarkibi, odatda, aksiyadorlik jamiyatining asosiy faoliyatini ta'minlovchi sho'ba korxonalari, bog'liq korxonalar va boshqa moliyaviy faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu guruh tarkibini aniqlash jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- asosiy kompaniya tomonidan boshqariladigan yoki unga bog'liq bo'lgan sho'ba korxonalar aniqlanadi. Bu korxonalar asosiy kompaniyaning moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin;

- guruh tarkibidagi har bir korxonaning moliyaviy bog'lanishlari va ularning asosiy kompaniyaga ta'sirini aniqlash zarur. Bu jarayonda, aksiyadorlik jamiyatlarining ulushi, moliyaviy majburiyatlari va investitsiya kelishuvlari o'rganiladi;

- har bir sho'ba korxonasining konsolidatsiya darajasi aniqlanadi, ya'ni, bu korxonalar konsolidatsiyalashgan hisobotlarga qanday kiritilishi belgilangan bo'lishi kerak. Bunda, aksiyadorlik jamiyatining ulushi va nazorat qilish huquqlari hisobga olinadi;

- guruh tarkibidagi har bir korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlari, masalan, foyda, aktivlar va passivlar, to'plangan ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Bu ko'rsatkichlar konsolidatsiyalashgan hisobotni tayyorlash jarayonida e'tiborga olinadi.

Guruh tarkibini aniqlash jarayoni, moliyaviy hisobotlarni tayyorlashning samaradorligini oshirishga va aksiyadorlik jamiyatining umumiy moliyaviy holatini to'g'ri aks ettirishga yordam beradi. Buning natijasida investorlar va manfaatdor tomonlar uchun aniq va ishonchli moliyaviy ma'lumotlar taqdim etiladi.

Sho'ba korxonasining sof aktivlarini aniqlash, uning moliyaviy holatini va barqarorligini baholash uchun muhim jarayondir. Sof aktivlar, odatda, korxonaning qisqa va uzoq muddatli aktivlari ichida, uning asl qiymatini aks ettiruvchi, zarar ko'rgan yoki passivlar bilan muvozanatni saqlovchi aktivlarni ifodalaydi. Sof aktivlarni aniqlash jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

○ sho'ba korxonasi barcha aktivlari (qisqa muddatli va uzoq muddatli) to'plangan ma'lumotlar asosida tasniflanadi. Qisqa muddatli aktivlarga naqd pul, hisobvaraqlar va tayyor mahsulotlar kiradi, uzoq muddatli aktivlar esa asbob-uskunalar, bino va inshootlar kabi ko'chmas mulkni o'z ichiga oladi;

○ sof aktivlarni aniqlash jarayonida zarar ko'rgan, amortizatsiya qilingan yoki hisobotda boshqa sabablarga ko'ra chiqib ketgan aktivlar hisobdan chiqarilishi kerak. Bu aktivlar korxonaning moliyaviy holatini to'g'ri aks ettirishda muhimdir;

○ har bir aktivning bozor qiymati, ya'ni sotiladigan narxi va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlari baholanishi kerak. Bu baholash, sof aktivlarni aniqlashda ularning haqiqiy qiymatini belgilashga yordam beradi;

○ sof aktivlar aniqlanganda, shuningdek, korxonaning mavjud passivlari (qarzlari, kreditlar va boshqa majburiyatlar) hisobga olinadi. Sof aktivlar, asosan, aktivlar umumiyidan passivlar umumiyini ayirish orqali hisoblanadi.

Sof aktivlar aniqlash formulasi

$$\text{SOF AKTIVLAR} = \text{UMUMIY AKTIVLAR} - \text{UMUMIY PASSIVLAR}$$

Sho'ba korxonasi sof aktivlarini aniqlash, uning moliyaviy barqarorligini va rivojlanish istiqbollari baholashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon, shuningdek, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun zarur moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etish imkonini beradi.

Gudwil bu korxonaning aktivlarining bozor qiymati bilan ularning hisob-kitobdagi qiymati o'rtasidagi farqni ifodalaydi. U, asosan, birlashish yoki qo'shilish jarayonida yuzaga keladi va korxonaning brendi, mijozlar bazasi, obro'si va boshqalar kabi moddiy bo'lmagan aktivlarining qiymatini aks ettiradi. Gudwilni aniqlash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat.

birlashuv yoki qo'shilish jarayonini o'rganish: Gudwilni aniqlash uchun avvalo, guruhga kiruvchi korxonalar o'rtasidagi birlashuv yoki qo'shilish shartlari, shuningdek, ushbu jarayonning umumiy maqsadi o'rganilishi zarur;

korxonaning aktivlarini baholash: Birlashayotgan yoki qo'shilayotgan korxonalar aktivlari, shu jumladan, moddiy aktivlar (ko'chmas mulk, asbob-uskunalar) va moddiy bo'lmagan aktivlar (brend, patentlar, mijozlar bazasi) baholanishi kerak;

korxonaning passivlarini hisobga olish: Aktivlar bilan bir qatorda, korxonaning barcha passivlari (qarzlari, kreditlar va boshqa majburiyatlar) to'plangan ma'lumotlar asosida aniqlanadi;

Korxonaning umumiy qiymati aniqlash formulasi

$$\text{UMUMIY QIYMAT} = \text{UMUMIY AKTIVLAR} - \text{UMUMIY PASSIVLAR}$$

Gudwilni hisoblash formulasi

$$\text{GUDWIL} = \text{TO'LANGAN NARX} - \text{KORXONA QIYMATI}$$

Bu yerda to'langan narx birlashuv yoki qo'shilish jarayonida yangi korxonaga uchun to'langan umumiy summa hisoblanadi.

Gudwilni nazorat qilishda har yili baholanadi va zarur bo'lsa, kamaytiriladi. Agar gudwilning qiymati pasaysa, bu korxonaning moliyaviy hisobotida zararni aks ettirishi mumkin. Gudwil, shuningdek, korxonaning bozor pozitsiyasini, brend qiymatini va mijozlar bilan aloqalarini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, bu uning moliyaviy

holatini baholash va kelajakdagi rivojlanish strategiyalarini rejalashtirishda ham ahamiyatli bo'ladi.

Nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulush, aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlar tomonidan nazorat qilinmaydigan va zaruriy qarorlar qabul qilishda ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan hissalar yoki aksiyalardir. Bunday ulushlar, odatda, jamiyatda qaror qabul qilish jarayonida faqatgina pastki darajada ta'sir ko'rsatadi. Nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulushni aniqlash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- aksiyadorlik jamiyatining umumiy aksiyalar soni, jamiyatning moliyaviy hisobotlarida aks ettirilganidek aniqlanadi. Bu son barcha aksiyadorlarga taqsimlangan aksiyalarni o'z ichiga oladi;

- Nazorat kuchiga ega bo'lgan aksiyadorlar, odatda, jamiyatda qaror qabul qilish jarayonida muhim rol o'ynaydilar. Ular aksiyalarining ma'lum bir foiziga ega bo'lishi kerak, masalan, 50% dan ortiq. Bunday ulushlar nazorat ulushi deb ataladi.

- nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulushlarni aniqlash uchun, nazorat ulushining foizini umumiy aksiyalar sonidan chiqarib tashlash kerak. Buning uchun quyidagi formula ishlatiladi:

Nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulush=Umumiy aksiyalar soni–Nazorat ulush

- nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulushning foizini hisoblashda Agar nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulushning umumiy aksiyalardagi foizini aniqlash zarur bo'lsa, quyidagi formula ishlatiladi;

$$NKEBU \text{ foizi} = \frac{NKEBU}{\text{Umumiy aktivlar soni}} * 100$$

Nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulushlar, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin, ammo ular aksiyadorlar tomonidan qaror qabul qilish jarayonida muhim rol o'ynamaydi. Ushbu ulushlarni aniqlash, kompaniyaning strukturasi va aksiyadorlar o'rtasidagi munosabatlarni baholashda muhimdir.

Guruhni taqsimlanmagan foydasi, aksiyadorlik jamiyatining faoliyatidan kelib chiqqan, ammo foyda bo'linishi amalga oshirilmagan yoki aksiyadorlarga to'lanmagan foyda hisoblanadi. Taqsimlanmagan foyda, korxonaning kelgusi rivojlanishida investitsiya qilish, zaxiralarni ko'paytirish yoki qarzlarni to'lash kabi maqsadlarda saqlanadi. Guruhni taqsimlanmagan foydasini aniqlash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

❖ umumiy foydani hisoblashda korxonaning moliyaviy hisobotlaridan kelib chiqib, umumiy foyda (sof foyda) aniqlanadi. Bu ma'lumotlar odatda korxonaning foyda va zarar hisoboti asosida olinadi.

❖ taqsimlangan foyda aksiyadorlarga dividendlar sifatida to'lanadigan summani anglatadi. Taqsimlangan foyda miqdorini aniqlash uchun jamiyatning to'lanadigan dividendlar summasi hisobga olinadi.

Taqsimlanmagan foydani hisoblash formulasi

TAOSIMLANMAGAN FOYDA=UMUMIY FOYDA–TAOSIMLANGAN FOYDA

❖ taqsimlanmagan foyda, moliyaviy hisobotlarda, odatda, "Taqsimlanmagan foyda" yoki "Foyda zaxiralari" deb ataladigan bo'limda ko'rsatiladi. Bu yerda jamiyatning yillik faoliyatidan kelib chiqadigan barcha taqsimlanmagan foyda jamlanadi.

Guruhni taqsimlanmagan foydasini aniqlash, aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy holatini va uning kelgusi investitsiya imkoniyatlarini baholashda muhim rol o'ynaydi. Buning natijasida,

kompaniya o'z foydasini qanday yo'naltirishi va qanday strategik qarorlar qabul qilishi to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Yuqoridagi bosqichlardan kelib chiqib aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayoni beshta muhim omillarni o'z ichiga olishini ko'rish mumkin. Ushbu jarayon ichida guruh tarkibini aniqlash, sho'ba korxonalarining sof aktivlarini baholash, gudwilni aniqlash va nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulushni hisoblash kabi bosqichlar o'rin oladi. Har bir bosqich o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, ularning natijalari aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy holatini va kelajakdagi strategik qarorlarini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

Guruhni taqsimlanmagan foydasini aniqlash, kompaniyaning faoliyatidan kelib chiqqan foydaning qanchasi dividendlar sifatida aksiyadorlarga to'lanmaganligini ko'rsatadi. Taqsimlanmagan foyda, aksiyadorlik jamiyatining kelgusi investitsiya imkoniyatlarini oshirish, moliyaviy barqarorligini saqlab qolish va kompaniya rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Taqsimlanmagan foydaning jamlanishi, kompaniya ichidagi moliyaviy resurslarni yanada samarali taqsimlash va ulardan foydalanishni ta'minlashga yordam beradi.

Shu tariqa, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisoblarni tayyorlash va tahlil qilish jarayonida yuqorida sanab o'tilgan omillarni hisobga olish, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun zarur bo'lgan aniq va ishonchli moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishga imkon beradi. Bu esa, o'z navbatida, korxonaning bozor pozitsiyasini mustahkamlash va kelajakda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayoni kompleks va ko'p bosqichli. Ushbu jarayonning har bir bosqichi, jamiyatning moliyaviy holatini to'g'ri aks ettirish va investorlar, kredit beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish uchun muhim ahamiyatga ega.

Guruhni taqsimlanmagan foydasini aniqlash, kompaniyaning kelgusi strategiyalarini belgilashda va moliyaviy barqarorligini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Taqsimlanmagan foyda, aksiyadorlik jamiyatining o'z investitsiyalarini qanday yo'naltirishini, shuningdek, o'z moliyaviy holatini qanday saqlashini ko'rsatadi. Bu jarayonlar, shuningdek, gudwilni aniqlash, nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulushlarni hisoblash va sho'ba korxonalarining sof aktivlarini baholash bilan bog'liq.

Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) talablariga muvofiq hisobot tayyorlash, xalqaro moliya bozorlarida aksiyadorlik jamiyatlarining raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Tahlil qilingan ma'lumotlar asosida, kompaniyalar o'z iqtisodiy faoliyatini yanada samarali tashkil etish, resurslarni optimallashtirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Shu sababli, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotlar tayyorlash jarayoni nafaqat hisob-kitoblarni to'g'ri qilish, balki korxonaning strategik maqsadlariga erishish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun muhimdir. Har bir bosqichning e'tiborga olinishi, korxonaning uzoq muddatli muvaffaqiyati va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Alexander D., Nobes C. (2013) *Financial Accounting: An International Introduction*. Pearson Education.

Barth M. E. (2008) *Global Financial Reporting: Implications for US Academics*. *The Accounting Review*, 83(5), 1159-1179.

Karimov M. (2015) Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari va ularning O'zbekistondagi tatbiqi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. 250 bet.

Nematov O. (2022) "Xalqaro moliyaviy hisob standartlari va ularning O'zbekiston biznesida o'rni", Iqtisodiyot va moliya jurnali. 5(2), 123-130.

Nobes C. (2006) International Accounting and Comparative International Accounting. Pearson Education.

Qodirov A. (2020) Respublikamizda moliyaviy boshqaruv va ichki nazorat tizimlarini takomillashtirish. Toshkent: davlat iqtisodiyot universiteti. 200 bet.

Raximov R. (2018) "Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish", Moliyaviy hisobot va tahlil jurnali.12(3), 45-52.

Sunder S. (2016) Theory of Accounting and Control. South-Western College Publishing.